O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

2026 yil yanvar-sentabr

I. Yalpi ichki mahsulot
II. Sanoat ishlab chiqarishi
III. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
IV. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi
V. Asosiy kapitalga investitsiyalar
VI. Bajarilgan qurilish ishlari
VII. Chakana savdo tovar aylanmasi
VIII. Tashqi savdo aylanmasi
IX. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
X. Korxona va tashkilotlar soni

I. Yalpi ichki mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026 yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda **1 755,5** trln so'mni hamda 2025 yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o'sish sur'ati **8,3 %** ni tashkil etdi.

Sanoat tarmog'ining o'sishi **8,1 %** ni va YaIM o'sishiga ijobiy hissasi **2,0** foiz punktni (f.p.) tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi **4,6 %** ni va YaIM o'sishiga ijobiy hissasi **0,7** f.p.ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi **12,5 %** ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YaIM o'sishiga ijobiy hissasi **1,0** f.p.ni tashkil etdi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati **8,9 %** ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **15,1 %** ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa **18,1 %** ga hamda boshqa xizmat sohalari **3,2 %** ga o'sdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasining YaIM o'sishiga ijobiy hissasi **4,2** f.p.ni tashkil qildi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi **8,4 %** ga o'sdi va uning YaIM o'sishiga ijobiy hissasi **0,4** f.p.ni tashkil etdi.

II. Sanoat ishlab chiqarishi

2026 yilning yanvar-sentabr oylarida respublika korxonalari tomonidan **1 085,7** trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,1 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **86,9 %**, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **6,5 %**, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **6,0 %**, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,6 %** ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bu ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,6 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **10,1 %** ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **3,1 %** ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi **1,6 %** ga oshganligidir.

Ishlab chiqaradigan sanoat hajmlarining o'sishiga boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish (2025 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **148,9 %**), transport uskunalarini ishlab chiqarish (**133,9 %**), boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish (**132,3 %**)ning o'sishi ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **83,4 %**) hajmlarining pasayishi kuzatildi.

III. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

2026 yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari) hajmi **465 346,7** mlrd so‘mni yoki 2025 yilning mos davriga nisbatan **104,6 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – **416 344,7** mlrd so‘mni (**104,7 %**), o‘rmon xo‘jaligida – **41 253,3** mlrd so‘mni (**105,0 %**), baliqchilik xo‘jaligida – **7 748,7** mlrd so‘mni (**101,2 %**) tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko‘payganligi (**4,6 %**) bilan bog‘liq. Barcha toifadagi xo‘jaliklarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining oshishi sabzavotlarning – **3,6 %** ga, donli ekinlarning – **16,3 %** ga, kartoshkaning – **6,6 %** ga, poliz ekinlarining – **4,5 %** ga oshishi bilan izohlanadi.

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **62,2 %**i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, **26,7 %**i fermer xo‘jaliklari, **11,0 %**i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

IV. Inflyatsiya darajasi va iste’mol narxlari indeksi

2026 yilning yanvar–sentabr oylarida respublika iste’mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **4,2 %**ni tashkil etdi.

2026 yil yanvar–sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o‘rtacha **2,9 %**ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasiga **1,19** f.p. ta’sir qilgan bo‘lsa, nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari ushbu davrda **4,6 %**ga qimmatlashib, umumiy ko‘rsatkichning **1,50** f.p. o‘sish sur’atini, xizmatlar esa **5,6 %**ga qimmatlashib, umumiy ko‘rsatkichni qo‘shimcha **1,48** f.pga. o‘sish sur’atini ta’minladi.

2025 yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi **143,9 %** (“Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar”), quyi chegarasi — **101,9 %**ga (“Kiyim va poyafzal”) yetdi.

2026 yilning yanvar– sentabr oylarida yig‘ma INI o‘sishiga “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” hamda “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” bo‘limlaridagi narxlar o‘zgarishi eng katta hissa qo‘shdi (umumiy hisobda **+2,25** f.p. yoki umumiy ta’sirning **54,0 %**i). Boshqa bo‘limlarning jami hissasi **+1,92** f.p.ni tashkil etdi.

V. Asosiy kapitalga investitsiyalar

2026 yilning yanvar-sentabr oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **584 154,2** mlrd so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **120,1 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag‘lari hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar ulushi **11,6 %**ni, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **6,2 %**, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lar – **1,3 %**, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – **63,6 %**, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **38,9 %**, aholi mablag‘lari – **12,3 %**, Respublika budjeti – **4,3 %**, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi – **0,7 %** ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2025 yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari: Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi – **236,2 %,** O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **154,0 %**, Respublika budjeti – **123,7 %**, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lar – **123,1 %**, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy

investitsiya va kreditlar – **120,5 %**, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **120,5 %**, aholi mablag‘lari – **111,0 %**, korxonalar mablag‘lari – **109,9 %** dan iborat.

VI. Bajarilgan qurilish ishlari

2026 yilning yanvar-sentabr oylarida **339 328,2** mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025 yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **112,3 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari umumiy hajmining **89 542,7** mlrd so‘mi yoki **26,4 %** yirik korxona va tashkilotlar tomonidan, **171 669,8** mlrd so‘mi yoki **50,6 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan, **78 115,7** mlrd so‘mi yoki **23,0 %** norasmiy sektor sub’ektlari tomonidan bajarildi.

VII. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026 yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **432 161,2** mlrd so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **19,7 %** ga o‘sdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 2025 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **12,3 %** ga o‘sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **17,8 %** ulushiga to‘g‘ri keladi. Kichik biznes sub’ektlarining chakana tovar aylanmasi 2025 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **20,4 %** ga o‘sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **71,9 %** ni, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **10,3 %** ulush bilan **44 463,3** mlrd so‘mni tashkil etdi.

VIII. Tashqi savdo aylanmasi

2026 yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **65 403,5** mln AQSh dollarini tashkil etib, 2025 yilning mos davriga nisbatan **3 874,4** mln AQSh dollariga yoki **6,3 %** ga ko‘paydi. Eksport hajmi **25 843,1** mln AQSh dollarini tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **5,5 %** ga kamaydi. Import **39 560,4** mln AQSh dollariga yetib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **15,7 %** ga oshdi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **62,4 %** ni tashkil etdi, shu jumladan sanoat mahsulotlari – **14,1 %**, turli xil tayyor buyumlar – **10,2 %**, kimyoviy moddalar va ularga o‘xshash mahsulotlar – **7,9 %**.

Import tarkibida asosiy ulushni mashinalar va transport uskunalari (**32,5 %**), sanoat tovarlari (**13,8 %**), shuningdek kimyoviy moddalar va ularga o‘xshash mahsulotlar (**12,1 %**) tashkil etdi.

IX. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari

2026 yilning yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 003,2** trln so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **16,7 %** ga o‘sdi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o‘sishiga asosiy omil savdo xizmatlarining **17,4 %** ga (ko‘rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o‘sishidagi ta’siri — **4,0** f.p.), moliyaviy xizmatlarning **22,0 %** ga (o‘sishdagi ta’siri **3,4** f.p.), transport xizmatlarining **16,4 %** ga (o‘sishdagi ta’siri **2,8** f.p.), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning **11,3 %** ga (o‘sishdagi ta’siri **2,1** f.p.), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **21,4 %** ga (o‘sishdagi ta’siri **1,6** f.p.) yuqorilashi bo‘ldi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo sohasida ishlab chiqarish hajmiga to‘g‘ri keldi (**235 284,4** mlrd so‘m, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati — **117,4 %**), shuningdek, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (**179 704,5** mlrd so‘m, yoki **111,3 %**), moliyaviy xizmatlar (**163 753,5** mlrd so‘m, yoki **122,0 %**) va transport xizmatlari (**162 833,9** mlrd so‘m, yoki **116,4 %**)ga to‘g‘ri keladi.

X. Korxona va tashkilotlar soni

2026 yil 1 oktabr holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni **621,1** mingtani tashkil etdi. Ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **459,1** mingta (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari). Hududlar bo‘yicha eng ko‘p soni esa Toshkent shahri (**118 860** ta), Toshkent (**59 191** ta), Samarqand (**57 237** ta), Farg‘ona (**52 326** ta), Qashqadaryo (**47 969** ta), Andijon (**37 943** ta) va Buxoro (**37 469** ta) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko‘p soni savdo sohasida – **170 555** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida – **135 411** ta, sanoat sohasida – **66 001** ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida – **35 439** ta hamda qurilish sohasida – **34 451** tani tashkil etdi.

2026 yil yanvar-sentabr oylarida respublikada **68,5** mingta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan **66,3** mingtasi kichik korxona va mikrofirmalardir.

2026 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra respublikada chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni **22 029** tani tashkil etdi. Ularning **4 851** tasi qo‘shma korxonalar va **17 178** tasi xorijiy korxonalardan iborat.

Tayyorlash uchun mas’ul:
Statistika ma’lumotlarini tarqatish boshqarmasi

Manzil: *100170, Toshkent, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63*
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel.: +998 71 203-80-00 (1045)